IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

RIVOJLANAYOTGAN DAVLAT IQTISODIYOTIDAGI BOZOR MUAMMOLARI (O‘ZBEKISTON MISOLIDA)

Ibragimov G‘anijon G‘ayratovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Innovatsion menejment kafedrasi,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsenti.
ORCID: 0009-0008-7188-2609
g.ibragimov@tsue.uz
Turdiyev Abbosbek Mardonaqul o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodyot universiteti
Menejment fakulteti talabasi
ORCID: 0009-0001-9872-8336
Abbosbekturdiyev877@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23885614

Annotasiya: Ushbu maqolada rivojlanayotgan davlatlar, xususan, O‘zbekiston iqtisodiyotining rejalashtirilgan tizimdan bozor munosabatlariga o‘tish bosqichidagi strukturaviy va institutsional muammolari tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlatning iqtisodiyotdagi yuqori ulushi, monopoliyalar, moliya va bank tizimidagi resurslar qimmatligi hamda kapital bozorining yetarsizligi, yashirin iqtisodiyot ko‘lami, mehnat bozoridagi nomutanosibliklar hamda geografik va logistika cheklovlari aniq statistik ma’lumotlar va ko‘rsatkichlar asosida yoritilgan. Shuningdek, suv va ekologik resurslar tanqisligining iqtisodiyotga ta’siri hamda ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ustuvor islohotlar va tizimli yechimlar ko‘rib chiqilgan.
Kalit so’zlar: Bozor iqtisodiyoti, rivojlanayotgan davlatlar, strukturaviy islohotlar, davlat monopoliyasi, yashirin iqtisodiyot, logistika cheklovlari, xususiylashtirish, investitsiyalar.

Аннотация: В данной статье анализируются структурные и институциональные проблемы стран с развивающейся экономикой, в частности Узбекистана, на этапе перехода от плановой системы к рыночным отношениям. В исследовании на основе конкретных статистических данных рассматриваются высокая доля государства в экономике, монополии, высокая стоимость ресурсов в финансово-банковской системе, неразвитость рынка капитала, масштабы теневой экономики, диспропорции на рынке труда, а также географические и логистические ограничения. Кроме того, изучено влияние дефицита водных и экологических ресурсов на экономику, изложены приоритетные реформы и системные решения, направленные на преодоление этих проблем.
Ключевые слова (Russian): Рыночная экономика, развивающиеся страны, структурные реформы, государственная монополия, теневая экономика, логистические ограничения, приватизация, инвестиции.

Abstract: This article analyzes the structural and institutional challenges faced by developing economies, specifically focusing on Uzbekistan during its transition from a planned to a market-

based economy. Based on empirical and statistical data, the study examines key issues including high state involvement in the economy, monopolies, high cost of financial resources, underdevelopment of the capital market, the scale of the shadow economy, labor market mismatches, and geographic and logistical constraints. Additionally, the impact of water and environmental resource scarcity on economic sustainability is addressed, alongside proposed policy solutions and strategic reforms to foster sustainable market mechanisms.

Keywords (English): Market economy, developing countries, structural reforms, state monopoly, shadow economy, logistics constraints, privatization, investments.

KIRISH

Rivojlanayotgan davlatlar, shu jumladan O‘zbekiston iqtisodiyoti rejalashtirilgan markazlashtirilgan tizimdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida bir qator strukturaviy va institutsional muammolarga duch keladi. Oxirgi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga qaramay, bozor mexanizmlarining to‘liq va samarali ishlashiga to‘sqinlik qilayotgan muammolar namoyon bo‘lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Rivojlanayotgan va o‘tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda bozor mexanizmlarining shakllanishi hamda institutsional muammolar xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF) va Jahon banki hisobotlarida ta’kidlanishicha, O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalar va banklar aktivlarining YaIMga nisbatan yuqori ulushi (100%) va ularning yarmidan ko‘pi samarasiz ishlashi xususiy sektor rivojiga to‘sqinlik qilmoqda[1] . Ushbu muammolarni bartaraf etish hamda adolatli raqobat muhitini yaratishning huquqiy mexanizmlari milliy qonunchilik va davlat strategiyalarida o‘z aksini topgan[2]. Shu bilan birga, Markaziy bank ma’lumotlari tijorat banklaridagi yuqori kredit stavkalari va davlat banklarining ustunligi (70-80%) sababli biznes uchun resurslar qimmatligini hamda bank kreditlariga alternativalar (kapital bozori) zaifligini ko‘rsatadi.[3]

Metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda rivojlanayotgan davlat iqtisodiyotida bozor mexanizmlarining shakllanishi va mavjud muammolarni aniqlash uchun tizimli va qiyosiy tahlil, statistiko-iqtisodiy va induktiv metodlar hamda deduktiv mantiqiy xulosa chiqarish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini xalqaro moliya institutlari (IMF, World Bank, ADB) va mahalliy olimlarning institutsional iqtisodiyot hamda makroiqtisodiy barqarorlikka oid ilmiy konsepsiyalari tashkil etadi.[4] Maqolada makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, davlat korxonalarining YaIMdagi ulushi, kredit stavkalari hamda yashirin iqtisodiyot dinamikasi miqdoriy va sifatiy tahlil usullari orqali guruhlanib, sabab-oqibat bog‘liqliklari asosida baholandi.

[1] World Bank Group (2024). Uzbekistan Economic Update: Securing Sustainable and Inclusive Growth.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2023). "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risida (PF-158-son) va *"Raqobat to‘g‘risida"*gi Qonun (O‘RQ-850).
[3] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024). Pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlari va sharhi.
[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2023). "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risida (PF-158-son) va *"Raqobat to‘g‘risida"*gi Qonun (O‘RQ-850).

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Davlatning iqtisodiyotdagi yuqori ulushi va monopoliyalar saqlanib qolmoqda. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (XVJ) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalar (DIK) va banklarning umumiy aktivlari mamlakat YaIMning 100 foizini tashkil etadi (shundan moliyaviy bo‘lmagan davlat korxonalari YaIMning 49 foizini, davlat banklari esa 51 foizini egallaydi). Energetika, transport, tog‘-kon va bank-moliya kabi strategik sohalarda davlat ustunligi saqlanib qolgan bo‘lib, bu xususiy sektor uchun teng raqobat sharoitlarini cheklaydi. Masalan, "UzAuto Motors" avtomobilsozlikda, "O‘zbekiston temir yo‘llari" transportda, "O‘zbekneftgaz" va "Milliy elektr tarmoqlari" energetikada monopol mavqega ega. Tahlillarga ko‘ra, davlat sektoridagi 2 000 dan ortiq korxonalarning atigi 46 foizigina foyda bilan ishlaydi, qolgan qismi esa zarar ko‘radi yoki samarasiz faoliyat yuritadi. Shuningdek, resurslarning ma’muriy yo‘l bilan taqsimlanishi va subsidiyalarning mavjudligi samarasiz davlat korxonalarini sun’iy ushlab turib, xususiy sektor rivojiga to‘sqinlik qilmoqda.

Moliya va bank tizimida resurslarning qimmatligi va moliyaviy instrumentsizlik muammosi mavjud. Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi 14 foiz atrofida saqlanib qolayotgani sababli tijorat banklarida milliy valyutadagi kredit stavkalari o‘rtacha 22-24 foizni tashkil etmoqda. Bu ko‘rsatkich, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes uchun uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilishni qiyinlashtiradi. Mamlakatda kapital bozori (fond bozori) hamon rivojlanishning dastlabki bosqichida bo‘lib, fond bozorining kapitallashuv darajasi YaIMga nisbatan 1-2 foizdan oshmaydi va korxonalarni moliyalashtirishning 90 foizdan ortig‘i faqat bank kreditlariga tayanib qolgan. Bank tizimidagi aktivlarning qariyb 70-80 foizi haligacha davlat ulushi bor tijorat banklari ("Milliy bank", "Sanoatqurilishbank", "Agrobank" va boshqalar) hisobiga to‘g‘ri keladi, bu esa kredit resurslarining bozor tamoyillari o‘rniga ba’zan ma’muriy usullar bilan ajratilishiga sabab bo‘ladi. Yashirin iqtisodiyot va soliq ma’murchiligi masalasi dolzarbligicha qolmoqda. O‘zbekiston Statistika agentligi va xalqaro tashkilotlar ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda kuzatilmaydigan (yashirin va norasmiy) iqtisodiyotning ulushi YaIMga nisbatan taxminan 34,8 foizni (yoki 40 milliard AQSH dollaridan ortiqni) tashkil etadi. Sohalar kesimida yashirin sektor darajasi eng yuqori bo‘lgan tarmoqlar qishloq xo‘jaligi (58,6 foiz), qurilish (21,3 foiz) va xizmat ko‘rsatish (20,1 foiz) sohalaridir. Bu holat davlat byudjetiga milliardlab dollar soliq tushumlarining tushmay qolishiga hamda barcha majburiyatlarni halol bajarayotgan rasmiy biznes subyektlari uchun adolatsiz raqobat muhitini yaratishga olib keladi. Bunga naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushining pastligi va ayrim sohalarda nazorat mexanizmlarining yetarsizligi sabab bo‘lmoqda.

Mehnat bozori va inson kapitalida tarkibiy nomutanosiblik kuzatilmoqda. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning 60 foizga yaqini rasmiy mehnat shartnomasisiz (norasmiy sektorda) faoliyat yuritadi. Mamlakatda har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yoshlar kirib kelayotgan bir paytda, oliy va professional ta’lim tizimi zamonaviy sanoat va texnologiyalar talab qiladigan muhandislar, IT-mutaxassislar, moliyachilar hamda texnik kadrlarni yetarli miqdorda tayyorlab bera olmayapti. Natijada, 2 milliondan ortiq O‘zbekiston fuqarosi xorijda (asosan Rossiya, Qozog‘iston, Janubiy Koreya va Yevropa davlatlarida) mehnat migratsiyasida yuribdi, bu esa bir tomondan oilalar daromadini qo‘llab-quvvatlasa-da, ikkinchi tomondan ichki mehnat bozorini malakali kadrlar tanqisligiga uchratmoqda hamda tashqi iqtisodiy shoklarga bog‘liqlikni oshirmoqda. Infratuzilma

va logistika cheklovlari iqtisodiy o‘sish unumdorligini pasaytirmoqda. Mamlakatdagi mavjud elektr va gaz tarmoqlarining hamda ishlab chiqarish quvvatlarining sezilarli qismi ma’nan va jismonan eskirgan bo‘lib, bu sanoat korxonalarida energiya sarfi ko‘rsatkichini rivojlangan davlatnikidan 2-3 baravar yuqori bo‘lishiga olib kelmoqda. Masalan, elektr energiyasi yo‘qotishlari tarmoqda 10-15 foizni tashkil etadi. Geografik nuqtai nazardan O‘zbekiston "Double Landlocked" (jahon ummoniga chiqish uchun kamida ikkita davlat hududidan o‘tishi kerak bo‘lgan) mamlakat hisoblanadi. Bu holat eksport va import qilinadigan tovarlar narxiga qo‘shimcha 15-25 foizgacha transport-logistika xarajatlarini yuklaydi, natijada mahalliy mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi keskin kamayadi.

Ekologik muammolar va resurslar tanqisligi iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xavf solmoqda. O‘zbekiston iqtisodiyoti va qishloq xo‘jaligi suv resurslariga juda qaram hisoblanadi. Mamlakatda foydalaniladigan suvning qariyb 80 foizi transchegaraviy daryolar (Amudaryo va Sirdaryo) hisobiga to‘g‘ri keladi va global iqlim o‘zgarishi sababli yaqin yillarda suv tanqisligi 15-20 foizga ortishi taxmin qilinmoqda. Qishloq xo‘jaligida eskirgan sug‘orish texnologiyalari tufayli suvning 35-40 foizi dalagacha yetib bormay yo‘qotiladi. Bu holat YaIMda 18-20 foizlik ulushga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligi sektori va oziq-ovqat xavfsizligi uchun jiddiy bozoriy va strukturaviy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Institutsional va huquqiy masalalarda, xususan, xususiy mulk daxlsizligi va yerga bo‘lgan huquqlarni himoya qilishda muammolar saqlanmoqda. Yer resurslarining davlat tasarrufida qolishi va xususiylashtirish jarayonining sekinligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimiga to‘sqinlik qilmoqda. O‘zbekistonga kirib kelayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi YaIMga nisbatan 3-4 foiz atrofida bo‘lib, bu ko‘rsatkich boshqa jadal rivojlanayotgan davlatlarga (misol uchun, 7-10 foiz) nisbatan past hisoblanadi. Transparency International tashkilotining Korrupsiyani qabul qilish indeksida O‘zbekiston 180 ta davlat orasida 126-o‘rinni egallab turgani institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lish jarayoni doirasida davlat subsidiyalarini qisqartirish, bojxona tariflarini optimallashtirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni shiddatli xalqaro raqobatga tayyorlash kabi murakkab vazifalar turibdi.

Bozor samaradorligiga ta'sir qiluvchi yana bir chuqur tarkibiy omil — bu institutsional muhit va intellektual mulk himoyasining zaifligidir. Biznes subyektlari uchun shartnomalar ijrosini ta'minlash, sud tizimining xolisligi va mulk huquqining daxlsizligi masalalari uzoq muddatli va yirik investitsiyalarni jalb qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mualliflik va intellektual mulk huquqlarining yetarli darajada himoya qilinmasligi esa mahalliy korxonalarni innovatsiyalarga sarmoya kiritishdan to‘sib, tayyor texnologiyalarni shunchaki nusxalash bilan cheklanib qolishiga olib keladi. Shu bilan birga, zamonaviy bozor iqtisodiyotida texnologik va ekologik omillar ham jiddiy muammoga aylanmoqda. Mahalliy ishlab chiqarish korxonalarida energiya va resurs sarfining yuqori darajada ekani mahsulot tannarxini oshirib, global yashil iqtisodiyot sharoitida ularning raqobatbardoshligini pasaytiradi. Suv resurslarining yetishmovchiligi va iqlim o‘zgarishi ayniqsa agroiqtisodiyot tarmog‘iga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xavf solmoqda. Shuningdek, sanoatda va davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalar hamda sun'iy intellekt vositalarining sust joriy etilishi mahsulot zanjiri va logistika jarayonlarida qo‘shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda.

Ushbu iqtisodiy muammolar hamda rivojlanish tendensiyalarini aniqroq tushunish uchun so‘nggi statistik ma'lumotlar tahlil qilamiz:

5-jadval [5]

Iqtisodiy ko‘rsatkich / Indikator	Avvalgi ko‘rsatkich (2025-yil)	Eng oxirgi rasmiy ko‘rsatkich (2026-yil)	Manba va tendensiya
YIM (GDP) o‘sish sur'ati	7,7%	8,7% (2026-yil 1-chorak)	Statistika agentligi; barqaror yuqori o‘sish
Yillik inflyatsiya darajasi	8,0% (2025-yil sentabr)	6,4% (2026-yil sentabr)	O‘zbekiston Markaziy banki; monetar cheklovlar samarasi
Kuzatilmaydigan (Yashirin) iqtisodiyot ulushi	26,1% - 26,9% YIMga nisbatan	22,9% YIMga nisbatan (2026-yil 1-yarim yillik)	Soliq ma'murchiligi va raqamlashtirish evaziga qisqarish
Kichik biznesning YIMdagi ulushi	~45%	45,6% (2026-yil 1-chorak)	Xususiy sektor o‘sish doirasida saqlanmoqda
JSTga (WTO) a'zo bo‘lish maqsadi	Tayyorgarlik va muzokaralar	A'zolik jarayoni yakunlanish bosqichida (2026-yil)	Xalqaro savdo integratsiyasining eng yuqori darajasi

Keltirilgan jadval ma'lumotlari O‘zbekiston iqtisodiyotida ham ijobiy o‘zgarishlar, ham saqlanib qolayotgan tizimli chaqiriqlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Yillik inflyatsiya darajasining 2025-yildagi 8,0% dan 2026-yil sentabr holatiga 6,4% gacha pasayishi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu xususiy va xorijiy investorlar uchun bozor risklarini kamaytirib, uzoq muddatli rejalashtirish imkonini beradi. YIMning 8,7% ga o‘sishi esa sanoat va qurilish sohalarida faollik yuqoriligini ko‘rsatadi. Yashirin va kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushining YIMga nisbatan 26,1% dan 22,9% gacha qisqargani soliq va moliya sohasini raqamlashtirish hamda ma'muriy yukni yengillashtirish ijobiy samara berayotganidan dalolat beradi. Biroq 22,9% haligacha yuqori ko‘rsatkich bo‘lib, halol tadbirkorlar va davlat sektori o‘rtasidagi teng raqobatga to‘siq bo‘lib qolmoqda. Kichik biznes ulushining 45,6% atrofida bo‘lishi xususiy sektorning iqtisodiyotdagi rolini tasdiqlaydi. 2026-yilda JSTga a'zolik jarayonining yakunlanish bosqichiga kelishi esa ushbu kichik va o‘rta biznes subyektlaridan xalqaro texnik va sanitariya standartlariga tezkor moslashishni talab etadi.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2026-yil I chorak yakunlari bo‘yicha hisoboti (stat.uz), O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2026-yil sentabr oyi Pul-kredit siyosati sharhi (cbu.uz) hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy tahliliy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Xulosa

Rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O‘zbekiston iqtisodiyotining rejalashtirilgan tizimdan erkin bozor munosabatlariga o‘tish bosqichi bir qator murakkab strukturaviy, institutsional va ekologik muammolar bilan kechmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga qaramay, bozor mexanizmlarining to‘liq va samarali ishlashiga to‘sqinlik qilayotgan bir qancha asosiy g‘ovlar saqlanib qolmoqda.

Xususan, davlatning iqtisodiyotdagi yuqori ulushi (davlat korxonalari va banklar aktivlari YaIMning 100 foiziga teng) va strategik sohalardagi monopoliyalar xususiy biznes uchun teng raqobat muhitini cheklamoqda. Moliya-bank tizimida kredit stavkalarining yuqoriligi (22-24 foiz) va kapital bozorining yetarlicha rivojlanmagani uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilishni qiyinlashtirmoqda. Shuningdek, yashirin iqtisodiyotning yuqori ko‘lami (YaIMga nisbatan 34,8 foiz), mehnat bozoridagi kadrlar nomutanosibligi, energetika infratuzilmasining eskirgani va "Double Landlocked" geografik joylashuvi tufayli yuqori logistika xarajatlari iqtisodiy o‘sish samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, suv resurslari tanqisligi va iqlim o‘zgarishi kabi ekologik xavflar va korrupsiyaga qarshi kurashish hamda xususiy mulk daxlsizligini ta‘minlash masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda barqaror va raqobatbardosh bozor iqtisodiyotini barpo etish davlatning iqtisodiyotdagi bevosita aralashuvini bosqichma-bosqich qisqartirish, yirik davlat aktivlarini shaffof xususiylashtirish, xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, inson kapitaliga va yashil texnologiyalarga yo‘naltirilgan sarmoyalarni oshirish hamda Jahon savdo tashkilotiga (JST) a‘zo bo‘lish orqali global iqtisodiyotga integratsiyalashuvni chuqurlashtirishga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining "Raqobat to‘g‘risida"gi Qonuni, O‘RQ-850-son, 03.07.2023-y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistik agentlik rasmiy ma’lumotlari (stat.uz).
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlari va pul-kredit siyosati sharhlari (cbu.uz).
5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari (imv.uz).
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024). Pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlari va sharhi.